

Kelgusi yillarda BRICS mamlakatlarida faktoring bozorining o'sishi davom etishi kutilmoqda, ayniqsa Hindiston va Braziliyada raqamli yechimlarning joriy etilishi va moliyaviy savodxonlikning oshishi faktoringdan foydalanishni kengaytirishga turtki bo'ladi. Masalan, Hindistonda 2023-yilda faktoringga bo'lgan talab 40 foizga o'sgani qayd etildi, bu eksportga yo'naltirilgan kichik va o'rta korxonalar sonining ko'payishi bilan bog'liq.

Faktoring hududlarning investitsion jozibadorligi va rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. U biznesning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, xatarlarni pasaytirishga va kapital aylanishini tezlashtirishga xizmat qiladi. Buning natijasida mintaqaviy iqtisodiyot investorlar uchun yanada jozibador bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va daromadlarning oshishiga olib keladi. Faktoringdan foydalanish, ayniqsa an'anaviy bank kreditlariga kirishi cheklangan rivojlanayotgan mamlakatlar va hududlarda iqtisodiy o'sish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omilga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Faktoring kompaniyalari assotsiatsiyasi. "AFC_Stat." <https://www.asfact.ru>.
2. Factors Chain International. "Faktoring v mejdunarodnix raschetax: sovremenniy instrument finansirovaniya v usloviyax sanksiy". <https://www.vc.ru>.
3. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK). <https://www.ifc.org>.
4. Kings Research. "Faktoring xizmatlari hajmi, ulushi va tendensiyalari to'g'risida hisobot." <https://www.kingsresearch.com>.

MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich

*Toshkent amaliy fanlar universiteti
mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya bozori, xususan, tijorat banklarini moliya bozori orqali amalga oshiradigan operatsiyalari, ularni olib borishning nazariy asoslari, amalga oshirish xususiyatlari va tartiblari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston moliya bozorida tijorat banklari samaradorligini oshirishda bank xizmatlaridan foydalanishdagi muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan. Maqolada moliya bozorida tijorat banklarining faoliyatining ahamiyati, asosiy yo'nalishlari, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritilgan.

Kalit so'zlari: moliya bozori, qimmatli qog'oz, aksiya, tijorat banklari, bank xizmatlari, bank operatsiyalari, obligatsiya, bank resurslari, kredit mablag'lari, emitent.

Annotation: This article examines the financial market, in particular, the operations of commercial banks through the financial market, the theoretical basis for their conduct, features and procedures for their implementation. At the same time, problems in the use of banking services in improving the efficiency of

commercial banks in the financial market of Uzbekistan were analyzed and proposals for their elimination were presented. The article covers the importance of the activities of commercial banks in the financial market, the main directions, existing problems in the field and their solutions.

Keywords: financial market, securities, equity, commercial banks, banking services, banking operations, bond, bank resources, credit funds, emitetnt

Kirish

Hozirgi kunda, moliya bozorini tijorat banklari tomonidan investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bir maromda va xatarsiz muomalada bo'lishi uchun mazkur sohaga oid qonuniy me'yorlarni davr talablari darajasida ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni, oddiy fuqarodan tortib, to davlat organlarigacha qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni o'zida uyg'unlashtiruvchi tizim zarur hisoblanadi. Jaxon tajribasi, shuni ko'rsatmoqdagi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, tijorat banklari modernizasiya qilish va tijorat banklarini investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bugun kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zarurligini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya rivojlantirish tizimida investitsiya banklarini tashkil qilish usullari, vositalari va mexanizmlarini ishga solish yo'llarini ishlab chiqish, qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish uchun mavjud qonuniy-me'yoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish, fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishtirokchilar faoliyatini yuritishda va tashkil etishda yangi iqtisodiy normativlarni qo'llash, o'z o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar faoliyatlarini takomillashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo'lib qolmoqda.^[5]

Banklarning moliya bozoridagi faoliyatini tartibga solish va fond bozori kapitalizatsiya darajasini, ishtirokchilarning, shu jumladan xorijiy investorlarning investitsion faolligini ushlab turish murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu mummolarni samarali yechimi moliya bozorida banklarning raqobatbardoshliligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidliligi, investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

Mazkur holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, "Yashil" kreditlarni jalb qilish va moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy qilish.

Banklarning kredit portfellarini diagnostika qilish va dekarbonizatsiya bo'yicha ustuvorliklarni aniqlash va ESG risklarini boshqarish uchun konsalting kompaniyalarini jalb qilish. Bunda:

banklarning kredit va investitsion portfellarini "yashillashtirish;

xalqaro miqyosda banklarning mavqeini oshirish;

xalqaro moliya institutlari hamda yashil iqlim jamg'armasi orqali iqlimni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyatining yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidligini ta'minlaydi. Banklarning moliya bozoridagi faoliyati turli hil qimmatbaho qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzdorlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksell va boshqalarga mablag'larini qo'yish orqali amalga oshiradilar.^[4]

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili

Moliya bozori barqarorligini taminlashda institutsional investorlarga ta'rif beradigan bolsak Institutsional investor (ingl. institutional investor) - foyda olish maqsadida pul mablag 'lari egasi (badallar, paylar shaklida) vazifasini bajaruvchi va ularni qimmatli qog'ozlarga, ko 'chmas mulkka (shu jumladan ko 'chmas mulkka bo'lgan huquqlarga) sarmoya kiritadigan yuridik shaxs.

Institutsional investor- bu katta miqdordagi mablag'ni boshqaradigan va investitsiya qilishga ixtisoslashgan tashkilot. Qimmatbaho qog'ozlar, masalan, aksiyalarni sotib olish orqali ma'lum sohani moliyalashtirishga o'z ulushini qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.^[7]

Rus iqtisodchisi N.M.Giblova fond bozori, tijorat banklari va iqtisodiyotning real sektori o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq qilgan. Unga ko'ra, tijorat banklari fond bozorida asosan pul mablag'larini doylashtiruvchi, ya'ni qimmatli qog'ozlarni xarid qiluvchi investor sifatidagi o'rniga ko'proq ahamiyat qaratgan.

Boshqa bir rus iqtisodchisi O.I.Lavrushin boshchiligidagi olimlar guruhi esa tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirishi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion qo'yilmalari, davlat qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalari va REPO bitimlari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati to'liq ko'rib o'tilgan.

Boshqa bir amaliyotchi bankir A.Jalilov tijorat banklarini moliya bozoridagi faoliyatini ularning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini tahlil qilish orqali o'rganishga xarakat qilgan.^[4]

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududdiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassisleri 2025-yil 1-fevral holatiga O'zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasini o'rgandi.

Ma'lumot uchun: bozor HHI (Xerfindal Xirshman indeksi) bo'yicha raqobat darajasiga ko'ra 3-guruhga bo'linadi, raqobat darajasi past (HHI 2500-10000 gacha), o'rtacha (HHI 1500-2500) va yuqori (HHI 1500 dan past).

Aktivlar. 2025-yil 1-fevral holatiga aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72 birlikka yaxshilanib, 800 ni tashkil qildi. Bu davrda tijorat banklari jami aktivlari hajmi 17.7 foizga (yoki 115.6 trln.so'm) ortib, 768 trln. So'mga yetdi.

2024 yil 1-fevral holatiga xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 32.5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil 1-fevral holatiga 34,5 foizga yetdi. Bu davrda "Anorbank" ulushi (1.36 foiz) 0.64 foiz bandga, "TBC" bank ulushi (1.33 foiz) 0.60 foiz bandga, "Hamkor bank" ulushi (3.71 foiz) 0.41 foiz foiz bandga oshdi. Qolaversa davlat ulushi mavjud eng yirik banklardan "Asaka bank" (7.4 foiz) jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi mos ravishfa 1.5 va 1.3 foiz bandga kamaydi.

Kreditlar. 2025-yil 1-fevral holatiga kreditlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi o'tgan yilning ms davridagiga (975) nisbatan 57 birlikka yaxshilanib, 918 birlikni tashkil qildi. Bu davrda xususiy va chet kapitali ishtirokidagi banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmidagi ulushi 30 foizdan 31 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmi 2025-yil 1-yanvar holatiga 533.1 trln. So'mni (YalMga nisbatan 36.6 foiz) tashkil qilgan bo'lsa, 1-fevral holatiga 866 mlrd. so'mga oshib, 534 trln. so'mga yetdi. Jami kredit qoldig'i 2025 yil 1-fevral holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14 foizga oshdi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi mos ravishda 20 va 11 foizga ortgan. Ushbu davrda jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar hajmi 75 foizga ko'paydi.

Ma'lumot uchun: mikroqarzlar uchun maksimal qiymat 2024 yil 1 yanvardan 50 mln. so'mdan 100 mln. so'mga oshgan.

Milliy valyutadagi jami kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yilning yanvar oyida 24.1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, dekabr oyida 23.4 foizga tushgan.

Milliy valyutadagi aholi kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2024-yil dekabr oyida 24.9 foizgacha oshdi. (sentabrda 23.8 foiz edi). Buning asosiy sababi milliy valyutadagi kreditlarga bo'lgan talabning va inflyatsion kutilmalarning yuqoriligidir.

Depozitlar. Depozitlar uchun HHI indeks 2025-yil 1 fevral holatiga 636 birlikni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga (668) nisbatan 32 birlikka yaxshilandi. 2024-yil 1 fevral holatiga, jami depozitlar hajmi 242.1 trln. So'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil 1-fevral holatiga 310.2 trln. so'mga yetdi (o'sish 28.1 foiz).

Xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning bank tizimi jami depozitlar hajmidagi ulushi 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 foiz bandga oshib, 50 foizga yetdi, ammo 1-fevral holatiga "Ipotekabank" va "Tengebank" ning ulushu mos ravishda 0.67 foiz bandga va 0.37 foiz bandga qisqarishi natijasida davlat ulushi mavjud banklarning ulushi 1 foiz bandga yetdi.

Chet el valyutasi bank depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yil boshida 4.7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, yil yakunida 5.3 foizga yetdi. Qolaversa, ushbu davrda milliy valyutaga jalb qilingan depozitlar hajmi 36 foizga, chet el valyutasida jalb qilingan depozitlar hajmi 7.4 foizga ortgan.

Tahlil qilinayotgan davrda aktivlar, kreditlar va depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi raqobat darajasi oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunda davlat ishtirokini kamaytirish, xorijiy investorlarni jalb

qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora tadbirlar raqobat sharoitlarini yaxshilash va bank sektorini yanada rivojlantirishga xizmat qilayotganidan dalolat beradi.^[6]

Asosiy qism

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish hamda uni takomillashtirishda Quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

1. Tijorat banklarining korporativ qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalari hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, korporativ qimmatli qog'ozlarning fundamental va texnik tahlilini takomillashtirish kerak; ikkinchidan, transaksion depozitlarning barqaror qoldig'ini korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish lozim; uchinchidan, banklarning korporativ qimmatli qog'ozlardan oladigan daromadlari foyda solig'idan ozod qilinishi zarur.

2. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar portfelining sifatini ta'minlash maqsadida, birinchidan, qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya prinsipini buzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim; ikkinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning o'sish sur'atini qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning o'sish sur'atidan ortda qolmasligini ta'minlash zarur.^[5]

Hulosalar

So'nggi yillarda mamlakatimizda yirik aksiyadorlik jamiyatlarining muomalaga chiqargan aksiyalarini boshqarish uchun kerakli hujjatlar olish, investitsiya va xususiylashtirish jamg'armalari bilan ishlash kabi investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari tijorat banklarning diqqat markazida turgan obektlar bo'lib qoldi.

Shunday qilib, banklarning moliya bozoridagi faoliyat turlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

1. Banklar moliya bozorining quyidagi segmentlarida faoliyat yuritadilar: valyuta, qimmatli qog'ozlar, pul-kredit (jumladan ipoteka kreditlari), qimmatbaho metallar va toshlar (jumladan san'at asarlari).

2. Ko'chmas mulk bozorida vositachi, riyeltor, ishonchli boshqaruvchi (trast), ipotekaviy investor sifati faoliyat ko'rsatadi.

3. Valyuta bozorida: diler va broker (treyder, jumladan valyuta operatori). Bunda spot va muddatli bozorlarda ishtirok etadi.

4. Pul-kredit bozorida: pul hisob raqamlari va pul vositalari (cheklar, kartochkalar va h.k.) bo'yicha mijozlarga operatsion xizmat ko'rsatish; kredit berish va olish; bo'lak kreditorlarning kredit transhlari bo'yicha operator bo'lish va h.k.

5. Qimmatli qog'ozlar bozorida: emitent (emissiyalanuvchi va yemissiyalanmaydigan turlari bo'yicha); institutsional investor (o'zining investitsiyalarini boshqarish bo'yicha) va kollektiv investor (mijozlarining investitsiyalarini boshqarish bo'yicha); professional institut (broker, trayder, diler, anderrayter, trast, konsalting, kliring, depozitariy, transfer-agent va h.k.).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva Sh.Z. Pul kredit va banklar. -T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.09.2023 yildagi PQ-306-son

5. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil aprel №4 son, (1319-1320, 1323-1326 betlar)

6. "Science and education" scientific journal may 2023, 4-jild №5-son, (716-717, 718 betlar)

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududdiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2025-yil 1-fevral holatiga O'zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi

8. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD – MOLIYA", 2009 y.

9. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma. –T.: TMI, 2003.–305 b.

AHOLINI UY-JOYLAR BILAN TA'MINLASHDA IPOTEKA KREDITINI AJRATISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamidov Rasul Tavakkalovich,
Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi

Ma'lumki, O'zbekiston demografik o'sish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlar toifasiga kiradi. Respublika aholisi sonining yillik o'sishi 2 foizni, ya'ni o'rtacha 800 ming nafargacha kishini tashkil etmoqda¹¹⁸. Albatta bunday faol demografik o'sish aholining yashash shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida ko'plab ijtimoiy-iqtisosodiy chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish bilan birgalikda mamlakatimizda uy-joylar qurilishini kengaytirish, shuningdek, aholi uchun qulay shartlarda yangi ipoteka kreditlarini ajratish imkoniyatlarini yaratishni taqozo etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda uy-joy bozori demografik o'sish, iqtisodiy faollik, ko'chmas mulkka bo'lgan talab va taklif hajmining oshishi hamda aholi daromadlarining o'sishi fonida shakllanmoqda.

Bu borada so'nggi yillarda mamlakatimizda keng qamrovli tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrda qabul qilingan "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886-son Farmoni¹¹⁹ mamlakatimizda aholini uy-joylar bilan ta'minlash siyosatining mutlaqo yangi

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_246.pdf

¹¹⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-4637331>